

O‘ZBEKISTONDA QONUN TARJIMASHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-58-64>

Shuhrat KO‘CHIMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: 99890 9204745;
Shuxkuch@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda davlat tilida qonun ijodkorligi va qonun tarjimashunosligi masalalari, bu sohadagi xorijiy va milliy tajriba, qonun tarjimashunosligidagi muammolar tahlil qilingan va ularni hal etish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** davlat tili, qonun ijodkorligi, o‘zbek tili, qonun tarjimashunosligi yuridik terminologiya.*

***Аннотация.** В статье анализируются вопросы правотворчества и перевода законов на государственный язык Узбекистана, зарубежный и отечественный опыт в этой сфере, проблемы перевода законов, а также даются научные предложения и рекомендации по их решению.*

***Ключевые слова:** государственный язык, правотворчество, узбекский язык, юридический перевод, юридическая терминология.*

***Annotation.** The article analyzes the issues of lawmaking and translation of laws into the state language of Uzbekistan, foreign and domestic experience in this area, the problems of translating laws, as well as scientific proposals and recommendations for their solution.*

***Keywords:** State language, law-making, Uzbek language, legal translation, legal terminology.*

Huquqiy ijodkorlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri normativ-huquqiy hujjatlarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish masalasidir. Bu o‘ta mas’uliyatli va, o‘z navbatida, benihoya murakkab ish turi hisoblanadi. Chunki huquqiy matnga badiiy yoki publitsistik uslubga oid matndek erkin yondashib bo‘lmaydi, huquqiy tushunchalarning mazmunini umumadabiy tildagi barcha so‘zlar, badiiy tasvir vositalari (metafara, metanimiya, mubolag‘a, so‘z o‘yinlari kabilar) orqali ifodalab bo‘lmaydi. Normativ-huquqiy hujjat matni o‘ta qat’iy yondashishni, gap va jumla tuzilishlarini mumkin qadar buzmaslikni, shu bilan birga aniqlik yuqori darajada ta’minlanishini taqozo etadi.

“Normativ hujjatlarni tarjima qilish, - deb yozadi professor A.S. Pigolkin, - bu juda murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, huquqiy ijodkorlikni to‘ldiradi. U badiiy tarjimachilikdan farqli ravishda o‘ta (maksimal) aniqlikni, ifoda usulining sodda va konkretligini taqozo etadi. Agar huquqiy matn tarjimachiligida bunga erishilmasa, qonun ko‘rsatmalari noto‘g‘ri tushunish va qo‘llashga sabab bo‘ladi” [1, 305.].

Ko‘rinadiki, qonun tarjimashunosligining o‘ziga xos tashkiliy-texnik qoidalari va usullari mavjud bo‘lib, bu qoidalarni bilmaslik qonunni noto‘g‘ri tarjima qilishga, uning turlicha sharhlanishiga, tarjima qilinuvchi tilning qonun-qoidalari buzilishiga olib keladi.

Bu o‘rinda shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, hozir ham mutaxassislarimizning ruscha yuridik tilga o‘rganib qolganligi sababli ayrim qonunlar rus tilida tayyorlanib, so‘ngra o‘zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Biroq o‘zbek tiliga o‘girilgan qonunlarimizning matni rus tilidagidek aniq va tushunli emas, tili g‘aliz, tushunilishi og‘ir. Buning ustiga tarjima jarayonida ayrim qo‘pol xatoliklar ham yuz bermoqda. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 75-moddasi *Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish* deb nomlanadi.

Mantiqan o‘ylab qaraganda matnda *Suvlarning davlat hisobini yuritishi* deyilishi noto‘g‘ridir. Chunki suvlar qanday qilib davlat hisobini yuritish qoidalarini buzadi? Bu modda shu Kodeksning rus tilidagi shaklidan noto‘g‘ri tarjima qilingan. Unda shunday deyiladi:

Statya 75. Narushenie pravil vedeniya gosudarstvennogo ucheta vod

Ko‘rinadiki, bu modda rus tilida aniq va tushunarli ifodalangan. Shu moddani o‘zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin edi:

75-modda. Davlatning suv hisobini yuritish qoidalarini buzish

Tarjima jarayonida gaplar tarkibidagi har bir jumla va so‘zning qaysi bo‘lakka bog‘lanib, uni to‘ldirib, izohlab yoki aniqlab kelayotganligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Boshqa gap bo‘lagiga bog‘langan so‘z va jumlaning boshqa bir gap bo‘lagiga bog‘lash tarjimaning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Jinoyat kodeksining 14-moddasidagi quyidagi gapga e’tibor bering:

Ushbu kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Bu matndagi jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi jumlasiga e'tibor bering. Bu jumlaning o'qib bundan chiqdi jazo qo'llanmaydigan jinoyat ham bor ekanda degan savol tug'ilishi mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, jinoyat bo'lganidan keyin albatta jazo qo'llanadi. Gap shundaki, bu modda rus tilidagi shaklidan noto'g'ri tarjima qilingan. E'tibor bering:

Statya 14. Ponyatie prestuplenie

Prestupleniem priznaesya vinovnoe obuyestvenno opasnoe deyanie (deystvie ili bezdeystvie), zapreuzhennoe nastoyauim kodeksom pod ugrozoy primeneniya nakazaniya.

Ko'rinadiki, *pod ugrozoy premeneniya nakazaniya* jumlasini prestupleniya so'zini emas, balki *obuyestvenno opasnoe deyanie* atamasini izohlab kelyapti. O'zbek tilidagi shaklida esa *pod ugrozoy premeneniya nakazaniya* jumlasini jinoyat so'zi oldida berilib qo'pol xatolikka yo'l qo'yilgan. Aslida u *obuyestvenno opasnoe deyanie* atamasining oldida qo'llanishi lozim edi.

Fuqarolik kodeksi 385-moddasining rus va o'zbek tillardagi quyidagi variantlariga e'tibor bering:

V sluchae izmeneniya ili rastorjeniya dogovora obyazatelstva schitayutsya izmennymi ili prekrauzennymi s momenta zaklyucheniya soglasheniya storon ob izmenenii ili o rastorjenii dogovora, yesli inoe ne vytekaet iz soglasheniya ili xaraktera izmeneniya dogovora, a pri izmenenii ili rastorjenii dogovora v sudebnom poryadke - s momenta vstupleniya v zakonnyu silu resheniya suda ob izmenenii ili rastorjenii dogovora.

Shartnoma o'zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o'zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida o'zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa sudning shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Agar bu gaplarni so'zma-so'z bir biriga taqqoslansa, rus tilidagi *s momenta zaklyucheniya soglasheniya storon ob izmenenii ili o rastorjenii dogovora* jummalari o'zbek tiliga taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab deb tarjima qilinganligini

ko‘rish mumkin. Ya’ni *zaklyucheniya soglasheniya* birikmasi o‘zbek tiliga oddiygina qilib *kelishish* deb tarjima qilingan. Ma’lumki, *zaklyucheniya soglasheniya* va *kelishish* bir xil ma’noni anglatmaydi. *Zaklyucheniya soglasheniya* - biror masala bo‘yicha tuzilgan va notarius yoki biror vakolatli idora tomonidan tasdiqlangan maxsus yuridik hujjat ma’nosini beradi. *Kelishish* esa yuridik kuchga ega bo‘lgan maxsus bitim tuzish ma’noni bermasdan, balki shuncha og‘zaki kelishuv ma’nosini ifodalaydi.

Tarjimon tomonidan arzimas deb hisoblangan bir so‘zning tushirib qoldirilishi amaliyotda ko‘pdan ko‘p tushunmovchiliklarga olib keladi. Jumladan, amaliyotda yuqoridagi huquqiy normaning rus tilidagi shaklini qo‘llayotgan fuqaro maxsus bitim tuzadi. Aynan shu moddaning o‘zbek tilidagi shaklini qo‘llayotgan fuqaro esa maxsus bitim tuzmasdan, shunchaki og‘zaki kelishibgina qo‘ya qoladi, xolos.

Huquqiy normalarning so‘zma-so‘z emas, balki mazmunan tarjima qilishga, bunda har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri ishlatishga alohida e’tibor bilan yondashish zarur. Jinoyat kodeksining 23-moddasiga e’tibor bering:

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog‘lagan bo‘lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Bu moddadagi *qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog‘lagan bo‘lsa* jumlasini shu qonunning rus tilidagi *zakon svyazyvaet povыshennuyu otvetstvennost* birikmasidan so‘zma-so‘z tarjimadir. Aslida shu jumlaning o‘zbek tilida *qonunda qattiqroq javobgarlik ko‘zda tutilgan bo‘lsa* deb ifodalash mumkin edi.

Ko‘rinadiki, amaliyotda qonun tarjimashunosligi bo‘yicha bir qancha muammolar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili to‘g‘risidagi qonunning 8-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi”- deyilgan.

Lekin shunday bo‘lsada, milliy istiqlolga erishganimizga o‘ttiz yil to‘lgan bir paytda ham qonun loyihalari o‘zga tillarda tayyorlanib, so‘ng

davlat tiliga o‘girilmoqda. Nazarimizda, qonunchilik amaliyotidagi bunday “tajriba”ga chek qo‘yish fursati yetdi.

Ko‘rinadiki, bugungi kunda qonun tarjimashunosligi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga nihoyatda muhtoj. Mamlakatimizda boshqa sohalarning tarjimashunosligi bo‘yicha ancha-muncha ishlar qilingan. Jumladan, badiiy tarjima san’ati bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari hamda risolalar yaratilgan [2,305.] Bu asarlarda badiiy tarjimaning ilmiy-nazariy qoidalari, usullari hamda tarjimonning mahorati kabi masalalar har jihatdan atroflicha tahlil etiladi. Lekin huquqiy-normativ hujjatlar tarjimasi, qonun tarjimashunosligi masalalari, uning qoida va usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli yo‘q darajada.

Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishib jahon xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy aloqalarimiz yuksalib borayotgan bugungi kunda o‘zbek milliy qonunlarini ingliz, fransuz, nemis, yapon tillari kabi nufuzli tillarga tarjima qilish dolzarb vazifadir. Chunki boshqa davlatdan O‘zbekistonga kelib ish yuritayotgan xorijlik fuqarolar mamlakatimiz qonunlariga asosan ish yuritadilar. Agar biror huquqiy norma boshqa tillarga sal o‘zgacharoq tarjima qilinsa, xorijlik fuqaro O‘zbekistonning xorijiy tildagi (aytaylik ingliz tilidagi) qonunlari orqali o‘z huquqini himoya qiladi. Haqiqatda esa bizning qonunlarimizda bunga yo‘l qo‘yilmasa, bu xalqaro darajadagi kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro miqyosdagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish masalalarini ham o‘ylab ko‘rish maqsadga muvofiq. Bunday xalqaro hujjatlarning aksariyat qismi hozirgi paytda rus tilidagi shakli orqali o‘zbek tiliga o‘girilmoqda. Bunday hujjatlarni rus tili orqali emas, balki shu tilning o‘zidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima qilish muhim vazifa hisoblanadi. Respublikada bu ishni markazlashtirgan holatda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Ta’kidlanganidek, huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan qonun tarjimachiligining ilmiy-nazariy qoidalari va usullarini ishlab chiqish juda ham muhimdir. Mazkur tadqiqot ishi davomida qonun tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun tarjimashunosligining ilmiy-nazariy qoidalari ishlab chiqishga harakat qildik. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tarjimon, avvalombor, o‘zi tarjima qilayotgan huquqiy normani har tomonlama o‘rganishi, to‘la ma‘noda tushunishi, shundan keyingina tarjimani boshlashi lozim;

2. Tarjima jarayonida qonun tilining rasmiylik, qat‘iylik, neytrallik, o‘ta aniqlik, qisqalik, soddalik, shaxssizlik, mantiqiy izchillik prinsiplariga qat‘iy rioya qilishi zarur;

3. Tarjima shu tilning fonetik, leksik, grammatik qoidalariga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak;

4. Tarjimada asosan yuridik tilda qabul qilingan so‘zlardan foydalanish prinsipiga asoslanib, eskirgan, shevaga va og‘zaki so‘zlashuvga xos so‘zlarni hamda kuchliy uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni ishlatmaslik lozim;

5. Mumkin qadar hammaga tushunarli bo‘lgan umumiste‘mol so‘zlarni ko‘proq ishlatish maqsadga muvofiq;

6. Huquqiy atamalarni tarjima qilishda huquqiy atamalarning barqarorligi prinsipiga rioya qilish zarur;

7. Huquqiy atamalarni qonun matnlarida ishlatishda shu atamaning keng xalq ommasi uchun qanchalik tushunarli ekanligini hisobga olish kerak. Agar atama ko‘pchilik uchun tushunarsiz bo‘lsa, shu atamaning izohini berish maqsadga muvofiq;

8. Asl matnda gapning grammatik qurilishi va uyushgan bo‘laklar qanday berilgan bo‘lsa, tarjimada ham shu tartibni saqlab qolishga harakat qilish kerak;

9. Ayrim murakkab huquqiy normalar bitta gap shaklida uzundan-uzun berilgan bo‘lsa, o‘z ona tilining qoidalaridan kelib chiqqan holda bir necha soddaga gaplarga bo‘lib berish usulidan foydalanish kerak;

10. Matn tarjima qilinganidan so‘ng qayta-qayta ekspertiza qilinishi, undagi har bir so‘z va grammatik shakl “chig‘iriy”dan o‘tkazilishi, ortiqcha so‘z va grammatik shakllardan voz kechilishi masadga muvofiq.

Shuningdek, bir tilda ifodalangan huquqiy normalar ikkinchi bir tilga tarjima qilinganda ham xuddi shu ma‘nolarni berishi, tarjimadan so‘ng uning turli sharhlanishiga yo‘l qo‘yilmasligi, aniq, ravshan, qisqa ifoda etilishi zarur. Shunga ko‘ra qonun tarjimashunosligi ham bir sa‘nat. Ayniqsa, qonun tilini ikkinchi bir tilga tarjima qilishga nihotda mas‘uliyat bilan yondashish zarur. Qonun tilida, o‘rni kelganda hatto, arzimagan bitta

vergul insonning hayot-mamotini belgilaydi. Bu qonun loyihasini tarjima qiluvchi tarjimondan ma'lum bir (yuridik, lingvistik, yurislingvistik, qonunchilik texnikasi, qonunchilik uslubi, muharrirlikka doir) bilimlardan xabardor bo'lishni, o'ta mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi.

Shunday qilib, bugungi kunda o'zbek milliy yuridik tilini takomillashtirish, uni tartibga solish va kamol toptirish Vatanni, millatni sevuvchi har bir ziyolining, birinchi navbatda, huquqshunos va tilshunoslarning muqaddas burchidir. Chunki, birinchidan, o'zbek milliy yuridik tili o'zbek adabiy tilining ajralmas bir tarkibiy qismi sifatida millatni, uning tarixiy taraqqiyotini, ma'naviy-huquqiy qadriyatlarini ifoda etadi. Ikkinchidan, o'zbek milliy huquqiy tilini takomillashtirish bilan millatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni oshirish yo'lida muhim bir qadam qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Научные основы советского правотворчества. Под редакции Р.О.Халфина. -М.: Наука,1981. -С.305.
2. Ўзбекистонда бадий таржима тарихи. -Т.: Фан, 1985; Ўзбекистонда бадий таржима тараqqиёти. -Т.: Фан, 1986.; Таржима санъати. -Т.: Фан, 1973.; Саломов Г'. Адабий анъана ва бадий таржима. -Т.: 1980.; Саломов Г'. Тил ва таржима. -Т.:1966.; Шарипов Ж. Бадий таржима ва мошир таржимонлар. -Т.: 1972.; Жўраев К. Таржима санъати. Т., 1982 ва бошqалар.
3. Насирова, С. А. (2022). ИСТОРИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЗАКОНОВ И НОРМ В ДРЕВНЕМ КИТАЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 303-310.
4. Ochilov, E. (2014). Translation theory. Tashkent: Institute of Oriental Studies.
5. Abdupattaxov, J. (2021, May). Pilgrimage tourism: promising directions, problems and solutions. In Конференции